



Mirzamiddinov Asliddin.

Toshkent islom instituti, Qur'on ilmlari kafedrası O'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qur'oni karimni sharhlash (tafsir) ilmining shakllanishi va rivojlanish jarayoni, bu sohada xizmat qilgan mashhur mufassirlar va ularning ilmiy merosi haqida so'z yuritiladi. Islom ilmlarining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ta'riflanuvchi tafsir ilmi, diniy-ma'naviy hayot, huquq, axloq, tilshunoslik kabi sohalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Maqolada klassik va zamonaviy mufassirlar, ularning tafsir uslubi, metodologiyasi va jamiyat hayotiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tafsir, mufassir, Qur'on sharhi, Ibn Kasir, Tabari, zamonaviy tafsirshunoslik, metodologiya, islomiy ilmlar, ma'no talqini.

Kirish. Tafsir ilmi islom ilmlarining eng qadimgi va muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Qur'oni karim – musulmonlarning asosiy diniy manbai bo'lib, uning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, amaliy hayotga tatbiq qilish uchun tafsir ilmi paydo bo'lgan va taraqqiy etgan. Har bir davr mufassirlari Qur'on oyatlarini o'z zamonlari ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy darajasiga qarab sharhlab, tafsirga o'z hissalarini qo'shganlar. Ushbu maqolada ana shunday mashhur mufassirlarning faoliyati va tafsir ilmiga qo'shgan hissasi yoritiladi.

Asosiy qism:

1. Tafsirning ilmiy asoslari va rivojlanishi:

Tafsir ilmi dastlabki asrlarda sahobalar orqali og'zaki tarzda rivojlandi. Keyinchalik bu ilm yozma manbalar shaklida shakllanib, maxsus tafsir kitoblari paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalishda eng qadimgi yozma tafsir – **Tafsir at-Tabariy** bo'lib, u islom tafsirchiligidan metodik asoslarini belgilab berdi.

Tafsir ilmi Qur'onning nozil bo'lishidan keyin shakllanib bordi. Qur'on ilk bor Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) davrida nozil bo'la boshlagan va uning sharhi ham uning va sahobalarining o'z vaqtida amalga oshirilgan. Biroq, tafsir ilmiy soha sifatida keyinchalik shakllandi va uni rivojlantirishda ko'plab olimlar, ulamolar muhim rol o'ynagan.

O'sha paytlarda tafsir asosida Qur'onning ma'nolarini tushuntirish Payg'ambarimizning (s.a.v.) o'zi va uning sahobalari tomonidan amalga oshirilgan. Keyinchalik, tafsir sohasida ko'plab islomiy olimlar tafsirlar yozishgan, jumladan:

Ibn Abbas — Qur'onning dastlabki tafsirchilaridan biri bo'lib, u Qur'onning oyatlarini to'g'ri tushunish va sharhlashda muhim rol o'ynagan. al-Tabari — "Tafsir al-Tabari" asarini yozgan va bu tafsirni ilk yirik ilmiy tafsir sifatida tanilgan. Ibn Kathir — "Tafsir al-Ibn Kathir" asarini yozgan, bu tafsir kitobi juda mashhur va keng o'qilgan.

Tafsirning turlari (XII-XVI asrlar): XII asrda tafsir fani yanada xilma-xillashdi. Qur'onning tafsirida aqliy va ilmiy yondashuvlar kuchayib, tafsirni usuliy jihatdan tahlil



qilish boshlangan. Ushbu davrda tafsirlar bir necha usullarda yozilgan: lug'aviy, ma'navi, ilmiy, fiqhiy va aqliy tafsirlar.

Zamonaviy tafsirlar . Hozirgi kunda tafsir ilmi rivojlanmoqda Yangi texnologiyalar, ilmiy yangiliklar va metodlar tafsirni o'rganishda yordam bermoqda. Shuningdek, tafsirda kengroq va aniqroq ma'lumotlarga asoslangan yangi tafsirlar shakllanmoqda.

2. Mashhur mufassirlar va ularning tafsirlari:

Imom at-Tabariy (839–923): Uning “Jome’ al-bayon fi tafsir al-Qur’an” nomli tafsiri hadis, sahoba va tobeinlarning rivoyatlariga asoslangan bo‘lib, rivoyat tafsiriga xosdir. Buyuk olim Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir Tabariy birinchilardan bo‘lib tafsir kitobini ta’lif etgan va uni alohida fan sifatida yo‘lga qo‘ygan olimlardan hisoblanadi.

Bu buyuk zot 839-yilda hozirgi Eronning tarixiy viloyati Tabaristonda tavallud topgan.

At-Tabariy Tabaristonning Amul shahrida (hozirgi Eron shimolidagi shahar) zodagon oilada tug‘ilgan. Amul shahrida dastlabki ta’limni olgan. Yetti yoshida u hofiz (Qur’oni yoddan biluvchi), sakkiz yoshida imom hisoblangan. 12 yoshida u o‘qishni davom ettirish uchun o‘z uyini tark etib, avval Rayda mashhur muhaddis va faqihlar qo‘lida o‘z bilimini oshirgan, so‘ngra Bag‘dod, Basra, Kufaga borib, zamonasining mashhur ulamolariga shogird tushgan. Suriya, Falastin va 867-yilda Misrga borganida yetuk olim sifatida e’tirof etilgan.

870-yili Misrdan Bag‘dodga kelgan olim keyingi 50 yillik hayoti davomida sermazmun ilmiy faoliyat olib borgan.

Abu Ja’far rahimahulloh o‘zining yoshligi haqida so‘zlab: “Yetti yoshimda Qur’oni Karimni yod oldim. Sakkiz yoshga to‘lganimda, taroveh namozlarida insonlarga namoz o‘qib berar edim. To‘qqiz yoshga to‘lganimda esa, hadis yoza boshladim” degan ekanlar. Imom Abu Bakr Xatib o‘zining “Tarixi Bag‘dod” kitobida shunday yozadi: “Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir Tabariy... shunday olim ediki, so‘zlari hukm o‘rnida qabul qilinardi, uning ra’yiga murojaat qilishardi. U o‘z asrida hech kim muvaffaq bo‘lmagan darajada ilm oldi va ularni yozdi. U Qur’oni karimni to‘la yod olgan, qiroat turlarining barchasini chuqur o‘zlashtirgan, ularning ma’nolarini teran o‘rgangan olim edi. U hadis ilmida ham benazir bo‘lib, sahobalar, tobeinlarning hayotlari, haqida ham hammadan yaxshiroq bilar edi”. deya ta’riflagan. Imom Tabariy yuksak e’tiroflarga sabab bo‘lgan “Tafsir”ini yetti yil davomida shogirdlariga aytib turib yozdirgan. Xatib Bag‘dodiy shunday deydi: “Ali ibn Ubaydulloh Simsimiydan eshitdimki, ibn Jarir Tabariy qirq yil davomida har kuni qirq varaqdan asar yozgan”.

Shayx Manna’ ibn Xalil Qatton aytadi: “Ibn Jarir va ibn Moja ilk Qur’oni kitob shaklida tafsir qilgan olimlardandir. Lekin ibn Mojaning tafsiri yo‘qolgan (bizgacha yetib kelmagan) tafsirlardan hisoblanadi. Muhammad ibn Jarir Tabariy tafsiri bugungacha komil shaklda yetib kelgan va u zot mufassirlar imomi deya atalgan”.

Hijriy 270 yil (milodiy 883 yil)da ta’lif etilgan “Jami’il bayani fi tafsiril Qur’an”- ya’ni, “Tafsiri Tabariy” ayni damdagi eng qadimgi tafsirlardan biridir. Bag‘dodiy rivoyat qiladi: “Abu Ja’far Tabariy bir kuni o‘z shogirdlariga aytdi: “Tafsir o‘qishni hoxlaysizlarmi, yozib





beraymi?”-dedi. Ular: “Qancha varaq bo‘ladi?” –deb so‘rashdi. U kishi: “ O‘ttiz ming sahifa bo‘lsa kerak...”-deb, javob berdi. Shunda shogirdlari: “Kitobni oxiriga yetmasdan umrimiz tugab qoladi-ku!”-deb, javob berdilar. So‘ng Abu Ja‘far Tabariy kitobni uch ming sahifaga qisqartirib, ta‘lif qildi

So‘ngra shogirdlaridan: “Odam alayhissalomdan bizning vaqtmizgacha bo‘lgan olam tarixini yozib beraymi”-deb, so‘radi. Ular: “Necha sahifa bo‘ladi?”-deb, so‘rashdi. Abu Ja‘far tafsir kitobining adadicha miqdorni aytgan edi, shogirdlari ham xuddi o‘shanday javob qaytarishdi. Shunda Abu Ja‘far: “Inna lillahi va inna ilayhi ro‘jiun! Odamlarda himmat kamayib ketibdi.” –deb, tafsirni qisqartirgan miqdorda qisqartirib yozdi”.

- **Imom Zamaxshariy (1075–1144):** "Al-Kashshof" nomli tafsir muallifi. Bu tafsir lug‘aviy va mantiqiy yondashuvi bilan mashhur.

Abu-l-Qosim Mahmud binu Umar az-Zamaxshariy - o‘rta osiyolik yozuvchi, faylasuf, amaldor. Uning asarlaridan chuqur ma‘noga ega ikkita to‘plam tashkil etilgan. Qofiyaviy nasr ko‘rinishidagi ilmiy mulohaza bo‘limi u tomonidan yozilgan va “Oltin shoda” nomini olgan.

To‘liq ismi Abul Qosim Mahmud binu Umar az-Zamaxshariy 1075 yil 19 mart kuni Xorazmning Zamaxshar shahrida tug‘ilgan, yoshligida kasal bo‘lganligi bois, bir oyog‘idan ayrilgan, yog‘och oyoq yordamida harakatlangan. Jismoniy mehnatga noloyiq bo‘lganligi sabab, otasidan madrasaga o‘qishga yuborishlarini so‘raydi.

Mahmud arab tili, adabiyot, diniy fanlarni tirishqoqlik bilan o‘rganadi. Husnixat ilmini o‘rganib, ayrim vaqt mobaynida u orqali pul topgan.

Bilimni chuqurroq o‘rganish ishtiyoqida u Buxoroga ketadi. Buxoroda Xorazm shohlariga xizmat qilib, hukmdorga yaqinlashishga harakat qiladi. Kerakli e‘tiborga ega bo‘lmagach, o‘z umidlarini ro‘yobga chiqarish uchun boshqa mamlkatlarga yo‘l oladi. 1118 yil og‘ir kasallikdan so‘ng kimgadur xizmat qilishdan bosh tortadi va butun umrini ilm-fanga bag‘shida etadi.

Az Zamaxshariy Marv, Nishopur, Isfaxon, Shom, Bog‘dod, Xijoz va ikki marotaba Makkada bo‘lgan. Qayerda bo‘lmasin, doim ilmiy ishlarini davom ettirgan, lug‘atni va arab tili grammatikasini, mahalliy qabilalar munozaralarini, maqolalarini, an‘analarini chuqur o‘rgangan. U qit‘a jo‘g‘rofiyasi bilan bog‘liq turli ma‘lumotlar to‘plagan.

- **Imom Roziy (1149–1209):** "Tafsir al-Kabir" muallifi bo‘lib, falsafiy, kalomiy tafsir uslubi bilan ajralib turadi.

- Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayn ibn Hasan ibn Ali Faxriddin Roziy Ray shahrida tug‘ilgan. Otasi shu yerdagi masjidning imom-xatibi bo‘lgani uchun uni “Roziy ibn Xatib” ham deyishgan. Faxriddin Roziyning tug‘ilgan yili xususida ba‘zi tarixchilar hijriy 543, ba‘zilar 544 (milodiy 1148) yilni ko‘rsatishadi. Alloma hayoti va

- ilmiy-ijodiy faoliyatini chuqur o‘rgangan arab olimi Muhammad Solih Zarkonning fikricha, u 544- yilda tug‘ilgan.

- Yoshligidan turli ilmlarga qiziqqan Faxriddin Xuroson va O‘rta Osiyoning bir qancha shaharlarida bo‘lib, ko‘plab olim, shoir, faylasuf va davlat arboblari bilan muloqotda





bo'ladi. U ta'lim olishni Xurosonning Marog'a shahrida boshlagan bo'lsa-da, hayotining ko'p qismi Buxoro, Samarqand, Nasaf, Xorazm, Banokat va Marvda o'tadi. Jumladan, Buxoroda buyuk mutafakkirlar Abu Ali ibn Sino va Abu Nasr Forobiy ta'limotlaridan tahsil oladi, ilmiy bahslarda qatnashadi.

- Olim qaysi shaharga bormasin, unga hurmat ko'rsatilgan. Xorazmda shoh Alouddin Takash izzat-ikrom ehtirom bilan kutib olgan. Farzandlariga ustozlik qilishini so'ragan. Otasi vafotidan keyin taxtga o'tirgan Muhammad ustoz Faxriddin Roziyga alohida iltifot ko'rsatib, martabasini oshirgan.

- Faxriddin Roziyning vafoti haqida ham olimlar orasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar Xorazmda, ba'zilar Ray shahrida, yana boshqalari Hirotida vafot etgan deyishadi. Ammo ko'pchiligi uning Xorazmda og'ir kasalikka chalinganini e'tirof etib, u yerda vafot qilganiga guvohlik beradi. Shunga ko'ra, Faxriddin Roziy hijriy 606 (milodiy 1209) yili ramazon oyining 15-kunida boqiy dunyoga ko'chgani aytiladi.

- Tafsir, fiqh, kalom, usul, tarix, adabiyot, falsafa fanlari bo'yicha davrining qomusiy olimi hisoblangan Faxriddin Roziy boy ilmiy-ma'naviy meros qoldirgan. Allomaning birgina "Jome'ul ulum" asari aqida, fiqh, faroiz, vasiyat, tafsir, tarix, grammatika, tib, tabiat, ov qilish, dehqonchilik haqida batafsil ma'lumotlar beradi. Tafsir ilmiga oid "Mafotihul g'ayb" asari chuqur mazmun-mohiyati va keng qamrovli ekanligi bilan boshqa tafsirlardan ajralib turadi. Roziy tafsirida oyat va suralarning o'zaro bog'liqligi va munosabati to'g'risida bir emas, bir necha dalil keltiradi. Olim Ibn Xallikon bu haqda: "Roziy o'z tafsirida ko'p ajoyib va noyob ma'lumotlarni jamlagan", deydi.

- **Ibn Kasir (1301–1373):** "Tafsir al-Qur'an al-Azim" nomli tafsiri bilan tanilgan. Bu tafsir tarixiy va hadisiiy asosga ega bo'lib, hozirgacha keng foydalaniladi.

- **Sayyid Qutb (1906–1966):** Uning "Fi zilal al-Qur'an" asari zamonaviy tafsirchilikda muhim o'rin tutadi. Unda ijtimoiy adolat, siyosiy qarashlar Qur'on asosida yoritiladi.

Tahlil:

Har bir mufassir o'z zamonasining diniy, ilmiy va ijtimoiy sharoitlariga mos yondashuv asosida tafsir yozgan. Bu tafsirlar orqali Qur'on oyatlarining kontekstual talqini, semantik chuqurligi va ijtimoiy-diniy yo'nalishlari aniqlangan. Masalan, Zamaxshariy tafsirida grammatika va stilistik jihatlar, Ibn Kasir tafsirida hadislar asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Fikr va mulohazalar:

Bugungi kunda zamonaviy tafsir ilmi faqatgina diniy asoslargagina emas, balki ilmiy-metodik yondashuvlarga ham tayangan holda rivojlanmoqda. Tafsirlarni o'rganish orqali Qur'on oyatlarining chuqur ma'naviy qatlamlari ochiladi. Shu bois, har bir musulmon ilm talabasi uchun tafsirlarni chuqur o'rganish muhimdir. Ammo tafsirga yondashishda metodologik asoslarga e'tibor berilishi, tarixiy kontekstda baholash va mutaassib yondashuvlardan saqlanish lozim.

Xulosa:



Tafsir ilmi Qur'onni to'g'ri tushunish va uni hayotga tatbiq etishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mashhur mufasssirlarning tafsiriy merosi musulmonlar uchun muhim yo'l ko'rsatuvchi manba bo'lib, ular orqali diniy bilimlar chuqurlashadi, aqidaviy barqarorlik ta'minlanadi. Zamonaviy davrda bu ilmlarni o'rganish va tahlil qilish, ayniqsa yoshlar orasida diniy savodxonlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рахматова, Г. (2018). Классификация воинских стихов в «Девону Лугати-Т-Тюрк». *Востоковедения*, 2(2), 59-64.
2. RAHMATOVA, G. (2019). THE SYMBOLISM OF COLORS IN THE QUATRAINS "DIVANI LUGATI-T-TURK".
3. SODIQOV, Q., & RAHMATOVA, G. (2021). SEMANTICS OF POEM IN «DIVANI LUGATI-T-TURK». *The Light of Islam*, 2021(2), 4.
4. Rahmatova, G. (2021). The genre of odes in the oral work of the turkic peoples and its genesis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 194-196.
5. Govkhar, R. (2021). The Role Of Ancient Folklore In Turkish Literature Of The First Islamic Period (On The Example Of Poems In" Devonu Lugati-T-Turk"). *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(6).
6. Eshmukhamedova, M., & Rakhmatova, G. (2023). SULAYMON BAQIRGANIY–POWERFUL POET OF YASSAVI SCHOOL. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(11), 365-369.
7. Tulagonova, S., & Rahmatova, G. (2022). SEMANTIC PROPERTIES OF STEREOTYPICAL UNITS IN THE POEMS OF "DIVANI LUGATI-T-TURK". *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(04), 74-78.